

AHMAD A'ZAM

VATAN HAQIDA YOZISHGA KUCHIM ETMAGAN SHE'RIM

Novella

Eski shaharning eski bir hovlisida turaman.

Doppidek hovlicha, yozuv-chizuvim bilan unga siğmay, tepaga - boloxonaga chiqib olganman; derazadan faqat tomlar, tomlar orasidan boshini chiqargan daraxtlaru onda-sonda uchib otgan qushlar korinadi; oftob nuri toğri men yozadigan qoğozlarga tushadi, kuzimni qamashtiradi; shovqin yoq, hammayoq osoyishta - senga nima etishmaydi, istaganingcha toyib-toyib yozmaysanmi, deyman ozimga.

Lekin hech konglim tolmaydi, nimagadir bõm-bõsh; boloxonaga chiqib olgan boʻlsam-da, pastda rozğorimdan balandda emasman, turmush tashvishlari xuddi qordan uchgan qurumdek kelib qoğozlarim tushaveradi - yozganlarimda maydachuyda kop, balandlik yoq.

Osmon toza, oftob hamishagidek charaqlagan bir kun edi, derazadan qarab shularni oylab otirga edim, birdan tomlar kuzimga boshqacha korinib ketdi: hammasi tutash, bir-biriga kiftini tirab, pastda yashayotgan oilalarning ahil yo arazlashganiga qaramay, kelishuvchilik bilan yastanib, quyoshning nurida birgalashib isinayotgandek tuyuldi: misoli erta koklamda oftob-shuvoqqa yonboshlab, undan-bundan inoqqina gurung qurgan, oltovlon ola boʻlmagan oğainilardek... Bir-birining shu dunyoda borligidan, qatorlari kamaymaganidan quvonib, shu quvonchlarini hangomalashib otirgan, hali ham zabardast, hali ham chorpahil chollardek... Xullas, bir-birini kors yuzi yashnab ketadigan odamlardek...

Daraxtlar ham tomlar orasidan boynini chozib, shamolda alanglagancha, bir-biridan hol-ahvol sorayotgandek korindi.

Yana biridan biriga nur otayotgan quvvatsimlarning tomlar boshini qovushtirishi; kechasi hovlilarning birida chiroq ochsa, hammasi zimiston ichida koladn; yoruğ oqib kelsa, baravar boʻlashib oladi...

Hozir hammasining tepasida charaqlayotgan bitta kuyosh, baland-balandlarda kokish tovlanayotgan yagona osmon!

Tomlar bir-biriga soya tashlamaydi, osmonni, quyoshni bir-biridan qizğanmaydi; boğotlarda joy talashib chirqillashayotgan chumchuqlarning kunchkovligiga beparvo. Goyo tomlar ahil, atrof tinch boʻlib, tashvishlanadigan kattaroq gap topilmaganidan zerikkan chumchuqlarga maydachuydadan boshqa tashvish qolmagandek...

Yuksaklardan otib qolgan katta qushlar tomlarga soqchi, osmonning ko'kragiga rasm chizayotgan qaldirg'ochlar - xabarkash...

Bu ko'rinishda...

Eh! Aytib berolmayman.

Shu otirgan joyimda, boloxonam, hovlim, qo'g'ozlarim bilan birga, ozim ham shu ko'rinishning bir bo'lagi ekanman; ko'rib turibman, ko'rganlarimni uqyapman: hali bu hammasi emas, ko'z oldimdagi ko'rinish tasavvurimga sig'mayotgan juda katta, cheksiz-chegarasiz manzaraning bir bo'lagi, bir parchasi, xolos, deb oylayapman.

Bu -- tiriklik, men ham uning ichida tirikman: shular bo'lmasa, men bo'larmidim!

G'alati bo'lib ketdim.

Men bu manzaraning ortasida otiribman, agar hozir boloxonam tomiga chiqib, chor-atrofga nazar solsam, hammayoqda shu manzaraning parchalarini ko'rar, xuddi hadsiz-hududsiz, yashnoq gilamning ortasida, uning ranglaridan kozi qamashib, uning cheksizligidan aqli shoshib qolgan chumolidek, anqayib turaverar edim.

Konglim orziqib, qani edi-ya, shularni yozsam, deb oyladim. Ichimdagi shu tuyg'ularni qo'g'ozga tushirsam: yozganlarimni oqiganlar ularda shu tomlarni, daraxtlarni, osmonni, oftobni va shu ustivor keng-likka qarab quvonib otirgan ozimni ham ko'rishsa, oqiyotib menga oxshab quvonishsa...

E, shoir emasman-da! Agar shoir bo'lganimdami!

Lekin shoirlarga oxshab hayajonlanib ketdim. Hayajonimni yozmoqchi bo'ldim, mayli-da, she'r bo'lmasa ham, konglimga yarasha:

agar tort devorni bitta tomga juftlab, olamga kirib-chiqiladigan eshik ochilsa uy bo'ladi;

uyning derazalaridan osmon oqib kiradi, agar uylar birlashib, betma-bet tursa kocha, ko'chalar bir-biriga ulansa, - qishloq bo'ladi; qishloqning yo'llari boshqa qishloqlarga oqib chiqadi;

agar qishloqlar qoshilib, tomlar bir-biriga kiftini tutsa, chorrahalarda boshini boshiga tirab ko'chalar gurunglashib yotsa -- shahar bo'ladi; shaharning uylari oftobga qarab osaveradi, yo'llaridan yana-yana qish loqlar oqib kelaveradi;

agar shaharlar, qishloqlar, dalalar, qirlar, yaylovlar, sahrolar, cho'llar, to'g'lar, daryolar uylari, daraxtlari, ot-olani, suvlari, tupro'gi, toshi, shamollari, jonzotlari va odamlari bilan bitta quyosh, yagona osmon ostida birlashib ketsa - Vatan bo'ladi -- ka-atta!

Bu tirik haqiqatni ozimcha shunday angladim: Vatan ko'z oldimga keldi, royirot ko'rindi, uni ba'grida ozimni ham ko'rdim: kichkinagina hovlimning ustida qondirilgan kaptarxonadek boloxonada otirib-uchib, Vatanimning poyonsiz

suratini oyna-konglimga sigdirishga urinib turgan holimda unga qoʻshilib-birlashib ketgan ekanman.

Men Vatanim bergan boshpanada yashab, u bergan ne'matlardan jon, havosidan nafas olib oʻtirgan ekanman.

Zuvalam ham uning tuproʻgʻidan, qarib-churisam ham shu tuproqqa qaytaman!

Hatto shu gaplarni yozayotgan qoʻgʻozlarim ham Vatanniki — uning ormonlarida oʻsgan oʻgʻochlarda olingan ekan. Men esam shu paytgacha bu qoʻgʻozlarga kim qaydagi mayda-chuydalarni tokib...

Endi shukronamni she'rga solmoqchi boʻldim.

“Oh-ho, qanchalar bepoyon ekansam, Vatan!”—deb yozdim, quruq gap boʻlib qoldi; Vatanga quruq gap aytib boʻlmas ekan.

“Ka'bamsan, Vatan!” -- deb yozdim, lekin oʻzim Vatanimning qoq baʼgrida -- poytaxtida oʻtiribman, chor-atrofim -- Vatan, unga bukilib sajda emas, etib-yugurib xizmat qilishim kerak, deb oyladim.

“Erka oʻgʻlingman, Vatan”, deb yozdim, ammo yoshim kirqqa borib ham, haliyam boladay erkalik qilib yursam, yarashmas-ov, degan andishaga bordim.

“Vatan, sen — uylar bir-birini suyaydigan, yollar bir-birini ulaydigan, qoʻshiqlar bir-birini tinglaydigan, suvlar bir-birini izlaydigan, maqsadlar bir-birini sizlaydigan buzruk ma'vosan, lekin yuragimga sigʻasan”, deb yozdim, tuzukka oxshadi, ammo she'r boʻlmadi.

“Vatan — men sening...” deb yozayotib shartta toʻxtab qoldim: boyadan beri Vatanni ta'riflayman deb, nuqul oʻzimni tiqishtiryapman ekan; xuddi Vatan hammamizniki emas, bitta menikidek.

Keyin “Vatan — onamiz”, deb yozdim, lekin qishloqdagi onamning holidan xabar ololmaganimga ikki oy boʻlgani esimga tushib qoldi, onasiga beparvo odam, qanday qilib Vatan—ona haqida oʻgʻiz toldi-rib gapiraman, deb oyladim.

Boshqa yozolmadim, oʻylayverdim, oylaganim sari Vatan kattalashib, oʻzim kichrayib boraverdim...

Qarasam, qoʻgʻozga termilganicha, qalamni qiynab, faqat bir soʻzni shivirlab yotibman: “Vatan”, “Vatan”, “Vatan...”

Shu soʻzni tovushimni chiqarib, baralla aytib yubordim.

Aytdimu...

Birdan deraza kengayib, osmon yonimga keldi, oʻzim quyoshning yonidan joy oldim...

Oʻsha yoqdan turib Vatanga qaradim: tomlar tomlarga, yollar yoʻllarga ulashgan, qishloqlar qoʻl ushlaydigan, toʻgʻlar oq qalpoqli boshini koʻkka tirab, ha, shunaqa balandmiz, deb turishibdi, ormonlar nafasida tozalangan havolarni

shamollar odamlarga tashib ketyapti, shamollarning shaffof oqimlarida qushlar chomilib yuribdi, odamlar bir-birlariga qarab bosh irgashyapti, salomlashishyapti shekilli, yaxshi narsalarni ma'qullashyapti shekilli, — bular-ning hammasi konglimda bo'lyapti ekan!

Alqissa, shunday: odam Vatanni anglashi uchun doim uyida otiravermay, sal balandroq joyga, osmonga bo'lmasa ham, hech qursa, uyining tomiga chiqib, chor-atrofga uzoq-uzoq tikilishi kifoya.

Avval o'ziga qarab...

Agar uning kongli oyna bo'lsa...

Bu oyna toza bo'lsa...

Shoirlik qilolmaganimga shu taskin bo'ldi.

Endi bilmadim: yozishimning buyo'gi qanday bo'lar ekan?

Bu tuy'gu yarim davlatmi yo butunmi?